TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
THE IMPACT OF BEHAVIORAL BIASES ON INVESTMENT PERFORMANCE	1048
Doston Turgunov Turgunovich	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	



TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi

Termiz davlat universiteti,
Moliya kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: zarifajorayeva304@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarining kredit xizmatlari zamonaviy moliya bozorining eng asosiy va ajralmas qismlaridan biri bo'lib, butun iqtisodiy hayotda markaziy o'rin egallaydi. Kreditlashtirish taraqqiyoti, mexanizmlarining takomillashuvi va zamonaviy yondashuvlarning bank amaliyotida keng joriy qilinishi natijasida tijorat banklari bugungi iqtisodiy muhitda faol ishtirok etmoqda. Bank krediti — bu bank tomonidan mijozlarga ma'lum muddatga, foiz evaziga ajratiladigan pul mablag'i bo'lib, iqtisodiy hayot subyektlari faoliyatining samarali moliyaviy instrumenti sifatida xizmat qiladi. Tijorat banklarining kredit portfeli, uning tarkibi va sifati, kredit xizmatlaridan samarali foydalanish yo'llari hamda bank tizimidagi kredit siyosatining asosiy tamoyillari muntazam o'rganilib kelmoqda.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit, tendensiyalar, pul mablag'i, iqtisodiyot, moliya, ishlab chiqarish, mijozlar, mexanizmlar, risklar.

Abstract. Credit services of commercial banks are one of the most important and integral parts of the modern financial market and occupy a central place in all economic life. As a result of the development of lending, the improvement of its mechanisms and the widespread introduction of modern approaches in banking practice, commercial banks are actively participating in today's economic environment. Bank credit is a sum of money allocated by a bank to clients for a certain period of time in exchange for interest and serves as an effective financial instrument for the activities of economic entities. The credit portfolio of commercial banks, its composition and quality, ways of effective use of credit services, and the main principles of credit policy in the banking system are being systematically studied.

Key words: commercial banks, credit, trends, money, economy, finance, production, customers, mechanisms, risks.

Аннотация. Кредитные услуги коммерческих банков являются одной из важнейших и неотъемлемых частей современного финансового рынка и занимают центральное место во всей экономической жизни. Благодаря развитию кредитования, совершенствованию его механизмов и широкому внедрению современных подходов в банковскую практику, коммерческие банки активно участвуют в современной экономической ситуации. Банковский кредит представляет собой денежную сумму, предоставляемую банком клиентам на определённый срок под проценты, и служит эффективным финансовым инструментом для деятельности хозяйствующих субъектов. В настоящее время систематически изучаются кредитный портфель коммерческих банков, его состав и качество, способы эффективного использования кредитных услуг и основные принципы кредитной политики в банковской системе.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредит, тенденции, деньги, экономика, финансы, производство, клиенты, механизмы, риски.



KIRISH

Tijorat banklari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan moliyaviy institutlar hisoblanadi. Ular jamiyat va biznes tuzilmalari o'rtasida moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritib, iqtisodiy resurslarning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishda asosiy harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Tijorat banklari orqali aholi va korxonalar o'z moliyaviy ehtiyojlarini samarali qondirish, turli xil bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bozordagi pul mablag'larini safarbar qilish, kredit va depozit operatsiyalarini amalga oshirish, hisob-kitob va to'lov tizimlarini soddalashtirish hamda mijozlarga zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish ushbu tizim faoliyatining asosini tashkil etadi. Bank to'g'risidagi zamonaviy tushuncha va yangicha qarashlar banklarning moliyaviy bozor ishtirokchisiga aylanishida muhim o'rin tutmoqda. Banklar iqtisodiy taraqqiyot, moliyaviy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu ma'noda, tijorat banklari mamlakat va hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, barqarorlashtirish va modernizatsiya qilishda ishonchli tayanch poydevor vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzu bo'yicha bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganildi. Tadqiqotlarda bank xizmatlarining rivojlanishi, masofaviy xizmat ko'rsatish va kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi yuzasidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar tahlil qilindi. XX asrning 60–70-yillari bank xizmatlari nazariyasining shakllanish bosqichi sifatida e'tirof etiladi.

Bu davrda bir qator xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari e'tiborga molikdir. Jumladan, X. Duglas (Michigan universiteti)ning "Kreditlash sohasidagi bank siyosati", D. Revel (Uels universiteti)ning "Raqobat va bank faoliyatini boshqarish", Jeneva universiteti olimlarining "Jamg'arma banklarining kredit xizmatlari" mavzusidagi ishlari, Sh. Dereyning "Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat", hamda G. Brayen tomonidan yozilgan "Bank sohasidagi raqobat" nomli tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar bank xizmatlari bozori, ularning segmentlari va raqobat muhitini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bank tizimining iqtisodiyotdagi o'rni hamda kredit xizmatlari samaradorligini oshirish masalalarini yoritadi.

Rus iqtisodchi olimi V.K. Spilnichenko o'z tadqiqotida quyidagicha ta'rif beradi: "Bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish — bu axborot xizmatlarining majmuasi bo'lib, mijozning topshirig'iga asosan, uning bankka tashrif buyurmasdan turib, hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadi." Olimning fikricha, masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi telekommunikatsiya vositalari orqali bankning ma'lumotlar bazasiga mijoz murojaatini tezkor tarzda uzatishga asoslanadi [1].

Tijorat banklarining kredit xizmatlari moliyaviy muammolarni hal etishda, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda, yangi ish o'rinlari yaratishda hamda aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kredit munosabatlarining rivojlanishi iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishda, bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda, innovatsion faoliyat ko'lamini kengaytirishda va ishlab chiqaruvchilar salohiyatini oshirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Bank sektori kredit xizmatlari zamon talablariga muvofiq ravishda takomillashib bormoqda. Kreditlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar, ilg'or IT-platformalar, onlayn va mobil ilovalar, shuningdek, risklarni boshqarishning samarali mexanizmlari keng joriy etilmoqda. Bugungi kunda tijorat banklari kredit bozorining eng yirik va ishonchli ishtirokchilaridan biriga aylangan. Ularning strategiyasi, kreditlash portfeli, moliyaviy mahsulotlari va bozordagi mustahkam mavqei bank tizimining barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Kredit xizmatlarining turlari va shakllari bo'yicha xilma-xillik, banklar tomonidan taklif etilayotgan innovatsion mahsulotlarning ko'payishi, bozordagi talab va taklif muvozanatini ta'minlash, shuningdek, raqobat muhitida kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarning doimiy takomillashuvi bank tizimining samaradorligini yanada mustahkamlamoqda. Tijorat banklarining kredit xizmatlari aholiga va yuridik shaxslarga moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, pul oqimini boshqarish, investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari kredit bozorida ishonchli hamkor sifatida faoliyat yuritib, moliyaviy vositachi rolini muvaffaqiyat bilan bajarmoqda. Kredit xizmatlarining samaradorligi va sifati bevosita bank tizimining ishonchlili, boshqaruv va nazorat mexanizmlarining samaradorligi, kapital yetarliligi va likvidlik darajasiga bog'liq.

Tijorat banklarining kredit siyosati va portfeli shakllanishi, qarz mablag'larining samarali taqsimlanishi, foiz stavkalari hamda kredit turlarining belgilanishi zamonaviy iqtisodiy talablar asosida aniqlanadi. Bozordagi holat,



iqtisodiy sarmoya oqimi, inflyatsiya darajasi, milliy va xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlar banklarning kreditlash faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar o'z navbatida kredit siyosatini shakllantirish, qarz oluvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solish, kredit portfeli sifatini va xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit xizmatlari bozori doimiy rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining tiklanishi, yangi onlayn mahsulotlar va dasturiy ilovalarning paydo bo'lishi, bank xizmatlarining mobil platformalarga o'tishi, kredit xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Tijorat banklari kredit xizmatlari sohasida zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos tarzda faoliyat yuritib, mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Xizmat ko'rsatish sifati, tezkorligi va ishonchligi iqtisodiyot taraqqiyotining muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda.

Moliyaviy muhitda bank krediti ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Tijorat banklarining kredit texnologiyalarini kengaytirishi, risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etishi, kredit portfeli sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llashi va raqobat muhitida yangi amaliyotlarni tatbiq etishi iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini tijorat banklarining kredit xizmatlarini rivojlantirishga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda bank tizimining amaliy tajribasi tashkil etadi.

Ish jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usul, taqqoslama tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida tijorat banklarining kredit siyosati, kredit portfeli sifati, risklarni boshqarish va raqamli texnologiyalar asosidagi kreditlash jarayonlari o'rganildi.

Empirik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning statistik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida tijorat banklarining kredit xizmatlarini takomillashtirish, kredit portfelining barqarorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda tijorat banklarining kredit xizmatlari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yangicha bosqichga ko'tarilib, zamonaviy texnologik imkoniyatlarning keng joriy etilishi bilan ajralib turadi. Kredit xizmatlarining asosiy xususiyati — mijozlarga tezkor, qulay va samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlash, jarayonlarni soddalashtirish hamda xizmat sifati va ishonchligini oshirishdir. Bugungi kunda bank kreditlari onlayn tarzda arizalarni tezkor qabul qilish, mijozlarni masofadan aniqlash, to'lovlarni amalga oshirish, kredit tarixini tahlil qilish va qayta kreditlash imkoniyatlariga ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, xizmatlarning osonligi, shaffofligi va xavfsizligi — bank amaliyotining eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit sohasida risklarni minimallashtirish, kredit portfelining sifatini oshirish, mijozlarning to'lov qobiliyatini va kreditga layoqatini aniqlashda zamonaviy reyting tizimlarini joriy etmoqda. Kredit risklarini baholash, analitik tahlil o'tkazish, kredit tarixini chuqur o'rganish hamda bank kapitalini samarali boshqarish amaliyoti bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Natijada, bank kreditlarining ishonchligi, xavfsizligi, shaffofligi va tezkorligi har bir tijorat bankining ustuvor strategiyasiga aylangan.

Kredit siyosatining qat'iy tartib-qoidalar asosida yuritilishi, markaziy bank tomonidan belgilangan normativ me'yorlar va nazorat mexanizmlarining takomillashuvi ushbu sohaning barqarorligini ta'minlaydi. Murakkab kredit mahsulotlari, korporativ qarzlar, chakana kreditlar, iste'mol kreditlari kabi xizmatlar milliy va xalqaro moliya bozorida alohida o'rin egallab, banklarning diversifikatsiyalangan faoliyatini kuchaytirmoqda. Kredit portfelining diversifikatsiyasi, risklarni kamaytirish hamda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish tijorat banklarining ishonchli faoliyat yuritishidagi eng muhim talablar sirasiga kiradi [3].

Kreditlash jarayonida mijozlarning ehtiyoj va talablarini chuqur tahlil qilish, shaxsiy va korporativ kredit mahsulotlarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatishda tezkorlik va yuqori sifatni ta'minlash bugungi kunda bank tizimidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Ommaviy raqamlashtirish, onlayn bank mahsulotlarining kengayishi va masofaviy mobil xizmatlarning joriy etilishi kredit xizmatlari rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, iqtisodiyotda real investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va iste'mol bozorini rivojlantirishda tijorat banklarining rolini mustahkamlamoqda.

Moliyaviy strategiya va kredit siyosatini samarali yuritish banklarning kredit portfeli sifatini oshirish, risklarni kamaytirish va xizmatlardan foydalanish samaradorligini kengaytirishga imkon yaratadi. Yangi kredit mahsulotlari, ilg'or kredit texnologiyalari, innovatsion risklarni boshqarish usullari, ichki va tashqi monitoring



tizimlarining joriy etilishi banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu orqali tijorat banklarining kredit bozoridagi raqobatbardoshligi, barqarorligi va ishonchliligi izchil oshib bormoqda.

Bank kredit xizmatlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari banklar va mijozlar o'rtasida yangi hamkorlik shakllarini shakllantirmoqda. Mijozlarga qulay, tezkor, shaffof va ishonchli xizmat ko'rsatish, individual yondashuv asosida kredit portfelini shakllantirish, kredit jarayonini avtomatlashtirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kredit tashabbuslarini faollashtirib, ularning samaradorligini oshirmoqda. Innovatsion mahsulotlar, elektron platformalar, mobil bank ilovalari va yangi moliyaviy texnologiyalar kredit bozorida yangilanish va o'sishni ta'minlab bermoqda [4].

Tijorat banklarining kredit xizmatlari mamlakat iqtisodiy o'sishi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy bank amaliyotida samarali boshqaruv, strategik yondashuv, mukammal kredit siyosati, raqobatbardosh mahsulotlar va texnologik yechimlar asosida kredit portfeli kengayib, iqtisodiyotni rivojlantirishga kuchli turtki bermoqda. Global moliya bozoridagi o'zgarishlar sharoitida tijorat banklarining kredit xizmatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Banklar tomonidan ilg'or risklarni boshqarish tizimlarining qo'llanilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishi, moliyaviy mahsulotlarning diversifikatsiyasi va innovatsion xizmatlarning joriy etilishi kredit xizmatlarining ishonchliligi va sifatini kafolatlammoqda. Shu tariqa, tijorat banklarining kredit xizmatlari bozori yangi bosqichga kirib, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining kredit xizmatlari zamonaviy iqtisodiy hayotning eng muhim segmentlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi va xalqaro moliya bozorida barqaror rivojlanmoqda. Kredit vositalari va xizmatlarining kengayishi, ularning sifatli boshqarilishi, innovatsion mahsulotlarning joriy etilishi, texnologik taraqqiyot hamda risklarni boshqarish sohasidagi ilg'or yondashuvlar bank tizimining ishonchli va samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Tijorat banklarining kredit xizmatlari yuqori malaka va zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda mijozlarning ehtiyojlarini to'liq qondirib, iqtisodiy taraqqiyot va moliyaviy barqarorlikning poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bozor infratuzilmasining kengayishiga, iqtisodiyotning barqaror va intensiv rivojlanishiga hamda milliy farovonlikning yuksalishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. — 2015-йil. — № 2. — Б. 22–25.
2. Спильниченко В. К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. — 2012-йil. — № 2 (26).
3. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров // Юридическая работа в кредитной организации. — 2014-йil. — № 2. — С. 23–27.
4. Izbosarov Boburjon Bahriddinovich. Raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari likvidligini tartibga solish. PhD dissertatsiya. — 2019-йil. — 22–42-betlar.
5. Saidqulov Murod Hayitboy o'g'li. Elektron bank xizmatlarini rivojlantirish va bank ishini avtomatlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Magistr dissertatsiyasi. — 2021-йil. — 24, 66–77-betlar.
6. Sherali Sultonov, Sherzod Alilov, Jasur Razzakov, Khusan Isaev. Development Ways of Stock Market in Uzbekistan (In the Case of «Tashkent» Republican Stock Exchange). Journal of Critical Reviews. — 2020-йil.
7. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhonovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald. — 2022-йil.
8. Sherali Sultonov. Directions of State Regulation of the Stock Market. International Journal of Economic Growth and Environmental. — 2021-йil.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>